


ANDIJON VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI (2020- yil yanvar-dekabr)

Mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati, xususan tashqi savdo sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard natijasi aholining turmush darajasiga bevosita o'z ta'sirini o'tkazadi.

2020- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 2 796,4 mln. AQSh dollarini tashkil etib, 2019-yilning mos davriga nisbatan 263,6 mln. AQSh dollariga yoki 10,4 % ga o'sdi.

TASHQI SAVDO
AYLANMASI
VA BALANSI
(yanvar-
dekabr, mln.
AQSh dollari)



Ma'lumot uchun: Andijon viloyati tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat To'var nomenklaturasi (keying o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

**ANDIJON
VILOYATI
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
ENG YUQORI
ULUSHGA EGA
BO'LGAN
DAVLATLAR
(2020-yil
yanvar-dekabr,
mln. AQSh
dollari, ulushi,
% da)**

TSA da eksport hajmi 584,9 mln. AQSh dollariga (17,1 % ga o'sdi) va import hajmi 2 211,5 mln. AQSh dollariga (8,8 % ga o'sdi) yetdi. Hisobot davrida – 1 626,6 mln. AQSh dollari qiymatida passiv tashqi savdo balansi qayd etildi.

Top-10 davlatlar	TSA	Eksport	Import	Ulushi, % da
Koreya Respublikasi	1 407,7	0,7	1 407,0	50,3
Xitoy	340,5	64,9	275,6	12,2
Qirg'iziston	269,4	238,5	30,9	9,6
Rossiya Federatsiyasi	250,3	65,3	185,0	9,0
Qozog'iston	175,2	164,8	10,4	6,3
Tailand	83,6	0,0	83,6	3,0
Turkiya	62,0	8,9	53,1	2,2
Braziliya	19,6	0,0	19,6	0,7
Chexiya	19,3	0,1	19,2	0,7
AQSh	17,8	0,4	17,4	0,6

So'nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishda, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida, eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

Andijon viloyati, jahonning 79 ta mamlakatlari bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSA ning nisbatan salmoqli hissasi Koreya Respublikasida (50,3 %), Xitoy Xalq Respublikasida (12,2 %), Qirg'iz Respublikasida (9,6 %), Rossiya Federatsiyasida (9,0 %), Qozog'istonda (6,3 %), Tailandda (3,0 %) va Turkiya (2,2 %) qayd etilgan.

Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni ijtimoiy-iqtisodiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, qo'shni davlatlar Qozog'iston va Qirg'iz Respublikalari bilan TSA da so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Tojikiston va Afg'oniston bilan tashqi savdo aylanmasi oshgani kuzatilmoqda.

Boshqa davlatlar (qo'shni davlatlardan tashqari) bilan esa, TSA da eng yuqori ulush Koreya Respublikasi, Xitoy, Rossiya, Turkiya, Tailand, Chexiya, AQSh va Braziliya davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha 20 ta yirik hamkor-davlatlar orasidan 4 ta davlatda faol tashqi savdo balansi kuzatilgan, xususan, Qirg'iz Respublikasi (207,6 mln. AQSh dollari), Qozog'iston (154,4 mln. AQSh dollari), Ukraina (9,9 mln. AQSh dollari), Ozarbayjon (7,1 mln. AQSh dollari) shular jumlasidandir.

ANDIJON
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
dekabr,
mln. AQSh
dollari)

Davlatlar	2018- yil.	2019- yil.	2020- yil.
Koreya Respublikasi	1273,5	1379,0	1407,7
Eksport	1,8	1,1	0,7
Import	1271,7	1377,9	1407,0
Saldo	-1269,9	-1376,8	-1406,3
Xitoy	242,9	249,2	340,5
Eksport	106,5	70,9	64,9
Import	136,4	178,3	275,6
Saldo	-29,9	-107,4	-210,7
Qirg'iziston	114,8	215,7	269,4
Eksport	89,4	185,2	238,5
Import	25,4	30,5	30,9
Saldo	64,0	154,7	207,6
Rossiya Federatsiyasi	213,0	222,4	250,3
Eksport	82,4	60,3	65,3
Import	130,6	162,1	185,0
Saldo	-48,2	-101,8	-119,7
Qozog'iston	85,0	142,1	175,2
Eksport	54,3	122,8	164,8
Import	30,7	19,3	10,4
Saldo	23,6	103,5	154,4
Tailand	4,7	7,1	83,6
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	4,7	7,1	83,6
Saldo	-4,7	-7,1	-83,6
Turkiya	44,7	61,9	62,0
Eksport	2,5	16,1	8,9
Import	42,2	45,8	53,1
Saldo	-39,7	-29,7	-44,2

ANDIJON
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
dekabr,
mln. AQSh
dollari)



Davlatlar	2018- yil.	2019- yil.	2020- yil.
Chexiya	8,2	11,0	18,0
Eksport	0,0	0,0	0,1
Import	8,2	11,0	17,9
Saldo	-8,2	-11,0	-17,8
Braziliya	8,1	10,8	17,3
Eksport	0,0	0,1	0,0
Import	8,1	10,7	17,3
Saldo	-8,1	-10,6	-17,3
AQSh	8,7	46,0	17,1
Eksport	0,2	0,4	0,4
Import	8,5	45,6	16,7
Saldo	-8,3	-45,2	-16,3
Germaniya	8,1	17,9	16,4
Eksport	0,0	0,5	0,2
Import	8,1	17,5	16,2
Saldo	-8,1	-17,0	-16,0
Ukraina	11,3	9,8	13,6
Eksport	5,0	6,4	11,4
Import	6,3	3,4	2,2
Saldo	-1,3	3,0	9,2
Xindiston	10,9	9,4	13,1
Eksport	0,5	0,0	0,1
Import	10,4	9,4	13,0
Saldo	-9,9	-9,4	-12,9
Italiya	7,2	11,9	10,6
Eksport	0,3	0,1	0,6
Import	6,9	11,9	10,0
Saldo	-6,6	-11,8	-9,4

ANDIJON
VILOYATINING
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
BILAN TASHQI
SAVDO
AYLANMASI
DINAMIKASI
(yanvar-
dekabr,
mln.AQ\$
dollari)

Davlatlar	2018- yil.	2019- yil.	2020- yil.
Ozərbayjon	0,9	9,5	9,0
Eksport	0,9	6,9	8,0
Import	0,0	2,6	1,0
Saldo	0,9	4,3	7,0
Polsha	4,9	6,8	7,9
Eksport	0,0	0,2	0,4
Import	4,9	6,6	7,5
Saldo	-4,9	-6,4	-7,1
Meksika	3,7	6,3	7,1
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	3,7	6,3	7,1
Saldo	-3,7	-6,3	-7,1
Slovakiya	4,0	3,8	6,5
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	4,0	3,8	6,5
Saldo	-4,0	-3,8	-6,5
Avstriya	4,2	5,9	3,9
Eksport	0,0	0,0	0,0
Import	4,2	5,9	3,9
Saldo	-4,2	-5,9	-3,9
Latviya	6,5	7,8	9,2
Eksport	0,8	1,4	0,8
Import	5,7	6,4	8,4
Saldo	-5,0	-5,0	-7,6

Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2020- yil yanvar-dekabr oylarida, tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 26,2 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi 2019- yilning shu davriga nisbatan 18,7 % ga oshgan.

ANDIJON
VILOYATINING
TASHQI SAVDO
AYLANMASIDA
MDH
MAMLAKATLARI
VA BOSHQA
XORIJIY DAV-
LATLARNING
HAJMLARI
DINAMIKASI
(yanvar-
dekabr,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, % da)




2020- yil yanvar-dekabr oylarida boshqa xorijiy davlatlarning TSA sidagi ulushi 73,8 % ni tashkil etib, 2019- yilning shu davriga nisbatan kamaydi (7,7 % ga).

ANDIJON VILOYATINING EKSPORTI (2020- yil yanvar-dekabr)

Joriy yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatning eksportyorlari soni 427 tani tashkil etib, ular tomonidan 584,9 mln. AQSh dollari (qimmatbaho metallar eksportidan tashqari) qiymatidagi (2019-yilning mos davriga nisbatan 17,1 % ga o'sdi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,3 % ni tashkil etib, ular mashinalar va transport asbob uskunalari (32,9 %), turli xil tayyor buyumlar (30,5 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (21,5 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (8,5 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

EKSPORT
TARKIBI
(2020-yil
yanvar-
dekabr,
ulushi, % da)



Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar

Ichimlik va tamaki

Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari

Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar

Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar

Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari

Mashinalar va transport asbob uskunalari

Turli xil tayyor buyumlar

Xizmatlar

	XSST tarkibi	Ming AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
		Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
MDH VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARGA EKSPORT TARKIBI (2020- yil yanvar- dekabr)	Jami eksport	584 864,3	498 399,9	86 464,4	100,0	100,0	100,0
	shu jumladan:						
	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	49 494,3	47 747,7	1 746,5	8,5	9,6	2,0
	Ichimlik va tamaki	349,3	349,3	-	0,1	0,1	0,0
	Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	31 253,3	19 551,1	11 702,2	5,3	3,9	13,5
	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	4,5	4,5	-	0,0	0,0	0,0
	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	250,3	250,3	-	0,0	0,1	0,0
	Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	2 996,1	2 491,3	504,8	0,5	0,5	0,6
	Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	125 786,7	60 438,8	65 347,9	21,5	12,1	75,6
	Mashinalar va transport asbob uskunalar	192 507,8	189 528,5	2 979,4	32,9	38,0	3,4
	Turli xil tayyor buyumlar	178 332,9	174 859,2	3 473,7	30,5	35,1	4,0
	Xizmatlar	3 889,0	3 179,2	709,8	0,7	0,6	0,8

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTINING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2020- yil
yanvar-
dekabr)**

MDH mamlakatlari va boshqa mamlakatlarga eksportning yo'nalishi bo'yicha farqlanishlar mavjudligi kuzatilmoqda. Xususan, MDH mamlakatlarga eksportning asosiy qismi qora va rangli metallar hissasiga to'g'ri kelmoqda, keyingi o'rinlarda eksport hajmi bo'yicha asosan mashina va uskunalar va klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari, turli xil tayyor buyumlar hamda boshqa xizmatlarga to'g'ri kelmoqda.

XSST tarkibi	2019- yilning yanvar-dekabriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	117,1	127,1	80,5
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	49,0	55,5	11,7
Ichimlik va tamaki	226,1	226,1	-
Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	87,9	79,9	105,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	74,3	74,3	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	24,2	24,2	
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	199,8	166,8	81,6 m.
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	115,1	169,6	88,7
Mashinalar va transport asbob uskunalar	139,7	143,3	54,0
Turli xil tayyor buyumlar	163,3	162,9	184,2
Xizmatlar	94,9	83,6	2,4 m.

**EKSPORT
TARKIBI
DINAMIKASI
(yanvar-
dekabr, % da)**

2020- yil yanvar-dekabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida sezilarli o'zgarishlar qayd etilmadi, biroq shuni ta'kidlash joizki, 2018- yilning yanvar-dekabriga nisbatan, mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar, oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar hamda xizmatlardan tashqari barcha tovar guruhlarida o'sish kuzatildi.

XSST tarkibi	2018- yil.	2019- yil.	2020- yil.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	22,1	20,2	8,5
Ichimlik va tamaki	0,0	0,0	0,1
Nooziq-ovqat hom-ashyo, yoqilg'idan tashqari	2,8	7,1	5,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	0,2	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	0,3	0,3	0,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	39,0	21,9	21,5
Mashinalar va transport asbob uskunalar	12,1	27,6	32,9
Turli xil tayyor buyumlar	22,4	21,9	30,5
Xizmatlar	1,3	0,8	0,7

**XSST BO'LIMI
BO'YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2020-y.
yanvar-
dekabr)**


XSST bo'limi nomi	Ming AQSh dollari	2019- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Sabzavotlar va mevalar	45197,4	48,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1969,7	3,6 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1226,2	19,3
Sut mahsulotlari va parranda tuxumlari	534,7	2,7 m.
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	423,1	86,0
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	349,3	2,3 m.
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	18111,7	79,0
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	12123,6	110,1
Moy olinadigan urug'lar va mevalar	983,3	62,9
O'g'itlar uchun xom-ashyo va mineral xom-ashyo (ko'mir, neft va qimmatbaho toshlardan tashqari)	34,8	63,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	4,5	74,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	249,1	24,0
Qayta ishlangan hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,3	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	952,8	3,5 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	553,5	106,9
Organik kimyo moddalari	499,5	
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	346,6	129,0
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	249,9	2,9 m.
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	93 966,7	62,1

**XSST BO'LIMI
BO'YICHA
AYRIM
MAHSULOTLAR
EKSPORTI
TARKIBI
(2020- y.
yanvar-
dekabr)**

Metallidan tayyorlangan buyumlar	11 708,0	157,9
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	3 295,6	76,0
Rezina buyumlar	429,3	154,8
Probka va darahtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	354,1	68,6
Mashinalar va transport asbob-uskunolari		
Avtomobillar	155 545,3	185,3
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	15 740,0	67,9
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	920,4	73,9
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	239,1	3,0 m.
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	109,5	28,0
Turli xil tayyor buyumlar		
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	151 767,9	187,3
Poyabzal	16 767,4	81,6
Har xil tayyor buyumlar	7 657,7	125,0
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 112,9	144,4
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash buyumlar	870,0	134,0
Xizmatlar		
Moliyaviy xizmatlar	2 084,8	77,2
Transport xizmatlari	900,4	155,7
Safarlar (turizm)	449,4	69,4
Tehnik xizmat va ta'mirlash xizmatlari	454,4	2,6 m.

**MDH
VA BOSHQA
DAVLATLARGA
TOVAR
VA XIZMATLAR
EKSPORTI
HAJMLARI
DINAMIKASI**
(yanvar-
dekabr,
mln. AQSh
dollari,
ulushi, % da)

So'nggi uch yilda MDH mamlakatlariga eksport hajmi oshdi va ularning jami eksportdagi ulushi 2018- yil yanvar-dekabr oyidagi 66,7 % dan 2020- yil yanvar-dekabr oyida 85,2 % ga yetdi. Mos ravishda boshqa mamlakatlarning jami eksportdagi ulushi 14,8 % ni tashkil etdi.




2020- yilning yanvar-dekabr oylari yakunida tovar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkor davlatlar tarkibida Qirg'iz Respublikasi (40,8 %), Qozog'iston (28,2 %), Rossiya Federatsiyasi (11,2 %), Xitoy Xalq Respublikasi (11,1 %), Ukraina (2,2 %), Turkiya (1,5 %), va Ozarbayjon (1,4 %) davlatlari saqlanib qolmoqda, hamda ularning jami eksportdagi ulushi 96,3 foizni tashkil etmoqda.

**ANDIJON
VILOYATI
EKSPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020- yil
yanvar-dekabr,
% da)**

Tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha yettita asosiy hamkor davlatlardan yetakchi bo'lgan Qirg'iz Respublikasi, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi eksportdagi ulushi bo'yicha peshqadamlikni oldi.

Hamkor mamlakatlarning tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha geografiasini 2019- yilning mos davriga nisbatan 90 davlatdan 54 davlatga kamaydi.



**ANDIJON
VILOYATINING
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLARGA
AMALGA
OSHIRGAN
EKSPORTI
HAJMI VA
O'SISH
SUR'ATLARI
(yanvar-
dekabr, mln.
AQSh. dollar)**

Asosiy hamkor davlatlar	Eksport	O'sish sur'ati, % da
Qirg'iz Respublikasi	238,5	128,7
Qozog'iston	164,8	134,2
Rossiya Federatsiyasi	65,3	108,3
Xitoy Xalq Respublikasi	64,8	91,5
Ukraina	13,1	170,7
Turkiya	8,9	55,5
Ozarbayjon	8,0	116,6

**ANDIJON
VILOYATINING
AYRIM
DAVLATLAR
BILAN EKSPORT
TARKIBI
(2020 yil
yanvar-
dekabr, ming
AQSh. dollar)**

Davlat nomi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'rni	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Qirg'iz Respublikasi	185 252,9	238 488,6	207,2	128,7	1	1
Qozog'iston	122 824,9	164 776,1	226,4	134,2	2	2
Rossiya Federatsiyasi	60 273,7	65 295,5	73,1	108,3	4	3
Xitoy Xalq Respublikasi	70 912,0	64 849,5	66,6	91,5	3	4
Ukraina	7 657,9	13 069,0	149,4	170,7	6	5
Turkiya	16 092,8	8 932,8	656,4	55,5	5	6
Ozərbayjon	6 891,8	8 038,2	786,8	116,6	8	7
Tojikiston	3 257,4	4 298,7	287,4	132,0	9	8
Afgoniston	7 361,8	3 330,2	893,6	45,2	7	9
Moldova Respublikasi	2 722,5	2 538,4	401,4	93,2	13	10
Belarus	2 934,8	1 865,6	184,2	63,6	12	11
Eron Islom Respublikasi	3 188,1	1 093,3	390,0	34,3	11	12
Latviya	1 383,0	785,9	186,5	56,8	14	13
Vetnam	192,1	783,7	13,8	408,1	26	14
Koreya Respublikasi	1 078,2	739,1	60,5	68,6	15	15
Litva	264,9	673,6	1689,5 m	254,3	19	16
Xindiston	214,4	627,0	35,5	292,5	22	17
Pokiston	3 253,3	591,0	1171,2	18,2	10	18
Italiya	53,8	582,8	19,0	1083,6	32	19
Malayziya	0,2	452,6	10,9	2797,4 m	63	20

Ushbu mamlakatlarga eksport qilinayotgan tovarlar tarkibiga asosan oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar, nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari, material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari hamda turli xil tayyor buyumlar kiradi.

**ANDIJON
VILOYATINING
AYRIM
DAVLATLAR
BILAN EKSPORT
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-
dekabr, ming
AQSh. dollar)**


XSST tarkibi	Qirg'iz Respublikasi		Qozog'iston		Rossiya Federatsiyasi		XXR	
	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.	2019- y.	2020- y.
Jami eksport	185 252,9	238 488,6	122 824,9	164 776,1	60 273,7	65 295,5	70 912,0	64 849,5
shu jumladan:								
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	62 070,1	36 245,8	14 195,4	537,8	8 915,9	9 936,1	1 029,6	33,9
Ichimliklar va tamaki	152,2	349,3	2,3	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	24 064,0	19 379,4	35,5	-	116,1	49,2	6 473,5	7 861,7
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	5,7	3,9	-	0,0	-	-	-	-
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,9	1,9	-	-	-	-	-	-
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	685,0	1 869,3	62,1	127,2	106,0	100,5	-	-
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalanган sanoat tovarlari	24 420,1	50 979,3	1 140,6	735,5	9 118,2	6 619,6	63 359,4	56 951,2
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	4 403,4	2 959,5	98 265,2	155 481,1	16 022,6	11 071,0	-	0,6
Turli xil tayyor buyumlar	69 189,5	126 584,5	8 930,6	7 443,4	22 683,8	34 916,2	-	-
Xizmatlar	262,0	115,5	193,2	451,2	3 311,2	2 603,0	49,4	2,1

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI**

Oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 45,6 mln. dollar qiymatli 66,7 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot eksport qilingan. Bunda 2019- yilning mos davriga nisbatan 49,3 % ga kamayish kuzatildi. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaralsa, 14,2 mln. AQSh dollariga teng 37,0 ming tonna sabzavot, shuningdek, 30,8 mln. AQSh dollari qiymatidagi 29,3 ming tonna meva va rezavorlar va 0,6 mln. AQSh dollari qiymatidagi 0,5 ming tonna yer yong'oq eksport qilindi.

Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan meva va sabzavotlarning ulushi 7,8 % ni tashkil etdi.

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI
(2020- yil
yanvar-
dekabr,
ming. AQSh
dollar)**



Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qirg'iz Respublikasi (77,0 %), Rossiya Federatsiyasi (19,6 %), Pokiston (1,2 %) Qozog'iston (0,7 %), Latviya (0,5 %), Turkiya (0,3 %) va Ukraina (0,3 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

**MEVA-
SABZAVOT
MAHSULOT-
LARI
EKSPORTI
GEOGRA-
FIYASI (2020-
yil yanvar-
dekabr)**

Davlat nomi	2019- yil			2020- yil		
	Tonna	AQSh dollar	Ulushi* % da	Tonna	AQSh dollar	Ulushi* % da
Qirg'iz Respublikasi	33 535,0	59 788,5	64,1	46 809,8	33 831,1	74,9
Rossiya Federatsiyasi	14 369,6	8 431,6	9,0	17 033,5	9 581,7	21,2
Pokiston	4 847,1	32 38,5	3,5	145,9	583,6	1,3
Qozog'iston	25 111,7	13 951,0	15,0	821,5	431,4	1,0
Latviya	2 461,3	732,7	0,8	874,0	258,1	0,6
Turkiya	550,8	1 045,5	1,1	95,5	147,7	0,3
Ukraina	3 490,1	643,0	0,7	448,8	144,4	0,3
Germaniya	44,0	198,0	0,2	60,0	57,0	0,1
Gruziya	74,0	33,3	0,0	44,0	40,6	0,1
XXR	1 406,1	1 021,7	1,1	52,4	33,9	0,1
Belarusiya	41,2	17,2	0,0	101,7	25,5	0,1
Mongoliya	-	-	0,0	40,6	24,4	0,1
Moldova Respublikasi	81,9	20,4	0,0	21,5	20,1	0,0
Afgoniston	3 265,1	2 342,2	2,5	138,6	13,9	0,0
BAA	241,0	152,2	0,2	1,0	4,0	0,0
Belgiya	34,0	50,0	0,1	-	-	-
Boshqa mamlakatlar	2 315,0	1 585,4	1,7	-	-	-

**-qiymat ifodasida*

**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI**

To'qimachilik mahsulotlari eksporti hajmining oshishi bevosita paxta xomashyosi o'rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlarning natijasi ekanini ko'rish mumkin. Jumladan, joriy yilda 267,0 mln. AQSh dollarlik to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 46,2 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan 46,5 % ga o'sdi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor trikotaj va tikuvchilik kiyimlari (25,4 %), paxtadan yigirilgan ip (12,8 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan 241 turdagi to'qimachilik mahsulotlari dunyoning 25 ta davlatiga eksport qilindi.


**TO'QIMACHILIK
MAHSULOTLARI
EKSPORTI
DINAMIKASI
(yanvar-dekabr,
ming AQSh
dollari)**

Tovar nomi	2019- yil.	2020- yil.
Paxtadan yigirilgan ip	76 618,7	74 733,7
Tayyor tekstil va tikuvchilik kiyimlar	76 246,5	143 582,5
Tekstil matolar	3 657,3	20 721,0
Tikuvchilik mahsulotlar	2 260,8	6 895,7
Boshqa to'qimachilik mahsulotlari	1 708,6	7 283,4
Paxta mahsulotlari	4 617,8	2 467,4
Ipak va ipak mahsulotlari	15 942,9	13 020,7
Gilamlar	1,4	5,9

ANDIJON VILOYATINING IMPORTI (2020- yil yanvar-dekabr)

2020- yil yanvar-dekabr oylarida import hajmi 2 211,5 mln. AQSh dollarini va 2019-yilning mos davriga nisbatan 8,8 % ga o'sdi.

Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunolari (62,9 %), asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (18,0 %), turli xil tayyor buyumlar (5,7 %), shuningdek xizmatlar (6,2 %) ga to'g'ri keldi.



XSST BO'LIMI
BO'YICHA
IMPORT
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-
dekabr, ulushi,
% da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2020- yilning yanvar-dekabrda import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 178,2 mln. AQSh dollariga o'sdi va 2 211,5 mln. AQSh dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 138,7 mln. AQSh dollariga yetdi.

**MDH
VA BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORT TARKIBI
(2020- yil
yanvar-
dekabr)**

XSST tarkibi	Ming AQSh dollari			Umumiy hajmga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar	Jami	MDH davlatlar	Boshqa davlatlar
Jami import	2 211 487,4	232 852,3	1 978 635,1	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	20 076,4	6 884,3	13 192,1	0,9	3,0	0,7
Ichimliklar va tamaki	28,9	28,9	-	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	18 079,8	9 633,3	8 446,4	0,8	4,1	0,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	14 704,6	11 992,8	2 711,8	0,7	5,2	0,1
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	2 488,6	2 444,4	44,2	0,1	1,0	0,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	103 642,5	13 867,1	89 775,4	4,7	6,0	4,5
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	397 112,9	128 055,0	269 057,9	18,0	55,0	13,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1 390 623,4	57 094,4	1 333 529,0	62,9	24,5	67,4
Turli xil tayyor buyumlar	126 006,5	729,5	125 277,0	5,7	0,3	6,3
Xizmatlar	138 723,8	2 122,5	136 601,2	6,3	0,9	6,9

Importning eng katta ulushi, jumladan, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari (55,0 %), mashinalar va transport asbob-uskunalar (24,4 %) hamda nooziq-ovqat xomashyo, (yoqilg'idan tashqari) (4,1 %) MDH mamlakatlariga to'g'ri keladi, boshqa xorijiy mamlakatlarga esa eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalar (67,4 %), sanoat tovarlari (14,0 %) va turli xil tayyor buyumlar (6,3 %), hissasiga to'g'ri keladi.

**MDH VA
BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2020- yil
yanvar-
dekabr)**

XSST tarkibi	2019- yil yanvar-dekabriga nisbatan, % da		
	Jami	MDH davlatlari	Boshqa davlatlar
Jami	108,8	104,1	109,3
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	101,0	63,5	145,8
Ichimliklar va tamaki	58,0	58,0	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	102,4	81,0	146,5
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	117,5	115,1	129,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	177,7	186,1	51,0
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	96,6	87,2	98,2
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	102,8	100,9	103,7
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	113,9	160,7	112,5
Turli xil tayyor buyumlar	103,6	14,7	107,4
Xizmatlar	95,2	36,3	97,7

Joriy davrda import qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2018- yilning mos davriga nisbatan mashinalar va transport asbob-uskunolari 67,5 % dan 62,9 % ga kamaydi, turli xil tayyor buyumlar 3,1 % dan 5,7 % ga o'sdi, asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari importining ulushi 13,9 % dan 18,0 % gacha o'sdi.

**IMPORT TARKIBI
DINAMIKASI
(2020- yil
yanvar-dekabr,
ulushi, % da)**

XSST tarkibi	2018- yil.	2019- yil.	2020- yil.
Jami	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:			
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	1,8	1,0	0,9
Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0	0,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,2	0,9	0,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,7	0,6	0,7
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,2	0,1	0,1
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar	4,9	5,3	4,7
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari	13,9	19,0	18,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	67,5	60,0	62,9
Turli xil tayyor buyumlar	3,1	6,0	5,7
Xizmatlar	6,6	7,2	6,3

**XSST BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-
dekabr)**

Mahsulot nomi	Ming AQSh dollari	O'zgarish suratlari, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar		
Tirik hayvonlar	9 811,1	161,5
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	3 463,8	63,6
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	2 991,5	110,5
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1 916,3	145,2
Sabzavotlar va mevalar	1 119,3	38,4
Ichimliklar va tamaki		
Ichimliklar	28,9	58,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari		
Probka va yog'och-taxtalar	5 965,4	113,6
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	4 529,7	123,5
Tabiiy kauchuk (sun'iy va regeneratsiya qilingan rezina ham)	3 898,8	139,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	1 779,7	194,7
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1 400,3	35,8
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
Ko'mir, koks va briketlar	10 997,3	112,6
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3 694,4	135,5



**XSST BO'YICHA
IMPORT
QILINGAN
AYRIM TURDAGI
MAHSULOTLAR
TARKIBI
(2020- yil
yanvar-
dekabr)**

Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar		
O'simlik moylari va yog'lari	2 445,1	190,9
Hayvon va o'simlik moylari	43,5	49,7
Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar		
Birlamchi shakldagi plastmassalar	39 165,4	81,1
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	23 491,5	120,2
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar	15 146,7	104,5
Organik kimyo moddalari	9 408,7	96,5
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	7440,0	92,8
Asosan material turiga qarab klassifikatsiyalangan sanoat tovarlari		
Cho'yan va po'lat	140 362,8	97,8
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	93 842,4	111,3
Metaldan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	82 663,3	111,4
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	39 243,9	106,1
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	26 093,0	108,9
Mashinalar va transport asbob-uskunalar		
Avtomobillar	1 010 271,5	115,6
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	132 241,1	100,3
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	130 638,3	125,2
Elektr mashinalari, apparatlar, asboblari va ularning ehtiyot qismlari	54 996,8	101,0
Elektr aloqasi, ovozni yozish va eshittirish apparaturalari va uskunalar	33 284,3	120,8
Turli xil tayyor buyumlar		
Har xil tayyor buyumlar	48 274,7	102,5
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar va mebel uchun tirgaklar, yostiqlar	37 285,6	120,4
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	30 710,7	104,2
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya isitish va yoritish uskunalar uchun armaturalar	6 948,4	106,3
Poyabzal	1 114,9	60,9
Xizmatlar		
Boshqa joylarda tasniflanmagan intellektual mulk obyektlaridan foydalanganlik uchun to'lovlar	84 628,8	104,1
Boshqa biznes xizmatlari	39 362,6	6,2 m.
Transport xizmatlari	5 271,0	9,1
Texnik xizmat va ta'mirlash xizmatlari	5 053,3	
Telekommunikatsiya, axborot va kompyuter xizmatlari	4 408,1	23,8 m.


MDH VA
BOSHQA
XORIJIY
DAVLATLARDAN
IMPORTNING
O'SISH
SUR'ATLARI
(2020- yil
yanvar-
dekabr)

Oziq-ovqat mahsulotlari importi hajmlarining kamayishiga sabzavotlar va mevalar (38,4 % ga), donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar (63,6 % ga) importining kamayishi ta'sir qilgan.


Kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar importi kamayishiga esa, birlamchi shakldagi plastmassalar importining ko'payganligi (81,8 %) hamda birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar (92,8 %) bevosita ta'sir etgan.



2018- yil



2019- yil



2020- yil

● MDH

● Boshqa davlatlar

Hisobot davri yakunlariga ko'ra, import bo'yicha hamkor davlatlar orasida Koreya Respublikasi umumiy import hajmida 63,2 % ulushi bilan Rossiya Federatsiyasini (8,4 %) ortda qoldirgan holda, birinchi o'rinni egallab kelmoqda.


**TOVAR
VA XIZMATLAR
IMPORTIDAGI
YIGIRMATA
YIRIK HAMKOR
DAVLATLAR
(yanvar-
dekabr)**

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		O'zni	
	2019- yil.	2020- yil.	2019- yil.	2020- yil.	2019- yil.	2020- yil.
Koreya Respublikasi	137 7922,0	1 406 998,3	108,4	102,1	1	1
Xitoy Xalq Respublikasi	178 257,0	275 638,9	130,7	154,6	2	2
Rossiya Federatsiyasi	162 164,5	185 005,2	124,2	114,1	3	3
Tailand	7 126,0	83 571,5	152,5	1172,8	9	4
Turkiya	45 848,7	53 054,9	108,5	115,7	5	5
Qirg'iz Respublikasi	30 459,3	30 911,0	119,9	101,5	6	6
Chexiya	12 427,4	19 641,6	136,1	158,1	10	7
Braziliya	12 655,8	19 185,4	137,3	151,6	13	8
AQSH	46 590,4	17 430,1	113,1	37,4	35	9
Germaniya	20 384,5	17 351,4	200,9	85,1	12	10
Hindiston	9 939,8	14 621,1	89,5	147,1	8	11
Italiya	13 331,5	11 108,6	144,1	83,3	7	12
Qozogiston	19 258,2	10 420,5	62,7	54,1	11	13
Latviya	6 379,9	8 432,1	111,6	132,2	4	14
Polsha	6 582,8	7 490,7	133,1	113,8	15	15
Meksika	6 342,0	7 094,6	173,7	111,9	14	16
Slovakiya	3 825,2	6 452,8	95,1	168,7	16	17
Eron Islom Respublikasi	3 724,8	4 132,2	186,1	110,9	19	18
Avstriya	5 884,6	3 914,1	139,5	66,5	31	19
Ukraina	3 704,2	3 166,3	53,9	85,5	26	20

ANDIJON
VILOYAT
IMPORTIDA
ASOSIY
HAMKOR
DAVLATLAR-
NING ULUSHI
(2020- yil
yanvar-dekabr,
% da)

2019- yil shu davri bilan taqqoslaganda import bo'yicha eng yuqori uchlikda o'zgarish kuzatilmadi.

2020- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bo'yicha Andijon viloyati tomonidan 64 davlat bilan tovarlar va xizmatlar importi amalga oshirildi.



Yetti yirik hamkor davlatlar (Koreya Respublikasi, Xitoy, Rossiya Federatsiyasi, Tayland, Turkiya, Qirg'iz Respublikasi va Braziliya) jami importning 92,9 % ini tashkil qiladi, bu 2 054,8 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.

Viloyatdagi sarmoyaviy muhit yaxshilangani sari va ushbu sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida mashina va uskunalar, shuningdek, ularning qismlari importining o'sishi tabiiydir. Shunday qilib, Koreya, Rossiya, Xitoy va Tailand tomonidan kiritilgan katta hajmdagi investitsiyalar natijasida, mahsulotlar importi hajmida ushbu mamlakatlarning yuqori ulushi saqlanib qolmoqda.

**MASHINA VA
USKUNALAR
IMPORTI**

**MASHINA VA
USKUNALAR
IMPORTI
DINAMIKASI
(yanvar-
dekabr,
mln. AQSh
dollari)**

2020- yil yanvar-dekabr oylari yakuni bilan 1 390,6 mln. AQSh dollari miqdorida mashinalar va transport asbob uskunalari importi amalga oshirilgan bo'lib, umumiy import hajmining 62,9 % ini tashkil qildi.

Import qilingan usbu sohada asosiy ulushni avtomobillar (72,6 %), aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar (9,5 %) va sanoat uchun mahsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari 9,4 %) egallagan.

Joriy yilning yanvar-dekabr yakunlariga ko'ra, mashina va transport asbob uskunalari importi 2019- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish (13,9 %) qayd etildi.

Mashina va uskunalar	2019- yil.	2020- yil.
Avtomobillar	873,8	1010,3
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	131,8	132,2
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	109,4	130,6

Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, davlatimiz tomonidan sanoat sohasining avtomobilsozlik tizimi butlovchi qismlari importi o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarish hamda ichki bozorni sifatli va arzon avtomobil bilan ta'minlash bo'yicha bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo'limi
Tel.:74-224-82-57**